

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TRENING, SEMINAR VA MAHORAT
DARSLARINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA KOMMUNIKATIV NUTQINI
RIVOJLANTIRISH**

Botirov Hamid Hakimovich

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Ijtimoiy va amaliy fanlar bo'limi
boshlig'i, Yuridik fanlari nomzodi, dotsent.

+998913118815

Jumaboyeva Madina Parda qizi

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti magistranti.

+99899 947 38 04

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18505869>

Annotatsiya. Maqola malaka oshirish jarayonida trening, seminar va mahorat darslarida interfaol metodlar asosida pedagoglarning kommunikativ nutqini rivojlantirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Nazariy qismda L.S. Vygotskiy, J. Bruner va konstruktivizm yondashuvlari asosida pedagogik kommunikatsiya va kommunikativ nutqning tarkibiy komponentlari tahlil qilindi. Amaliy qismda trening, seminar va mahorat darslarida qo'llanilgan interfaol metodlar (aqliy hujum, rol o'ynash, case study, debat, fishbone, insert, klaster) ta'siri va samaradorligi, shuningdek ishtirokchilarning nutq faolligi, fikrlash darajasi va hamkorlik kompetensiyalaridagi o'zgarishlar keltirildi. Maqola malaka oshirish tizimi uchun metodik tavsiyalar va kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Malaka oshirish, interfaol metodlar, kommunikativ nutq, pedagogik kommunikatsiya, trening, seminar, mahorat darsi, tanqidiy fikrlash, hamkorlik kompetensiyasi.

Zamonaviy ta'lim tizimi uzluksiz rivojlanish va yangilanish jarayonida bo'lib, bu jarayonda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini muntazam takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish tizimi ta'lim sifatini ta'minlash va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi globallashtirish, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar sharoitida o'qituvchidan nafaqat fan bilimlari, balki kommunikativ madaniyat, kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal eta olish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash kompetensiyalari ham talab etilmoqda.

Malaka oshirish tizimi pedagoglarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, ularni yangi pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va ilg'or tajribalar bilan tanishtiruvchi muhim platforma hisoblanadi. Ushbu tizim orqali ta'lim xodimlari o'z faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Ayniqsa, treninglar, seminarlar va mahorat darslari orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar pedagoglarning kommunikativ nutqini rivojlantirish, kasbiy muloqot madaniyatini yuksaltirish hamda jamoada samarali ishlash qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, malaka oshirish tizimi ta'lim islohotlarini amaliyotga joriy etishning muhim vositasi bo'lib, davlat ta'lim siyosati va zamonaviy ta'lim talablarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish imkonini yaratadi. Malaka oshirish tizimi zamonaviy ta'limning strategik tarkibiy qismi sifatida pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda yetakchi o'rin egallaydi.

Kommunikativ nutq shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqotga kirisha olish, o'z fikrini aniq, mantiqiy va ta'sirchan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish hamda

vaziyatga mos nutq strategiyalarini tanlay olish qobiliyatini ifodalaydi.¹ U faqat ogʻzaki yoki yozma nutq bilan cheklanmay, balki shaxsning emotsional-intellektual holati, muloqot madaniyati va ijtimoiy kompetensiyalarini ham oʻz ichiga oluvchi kompleks jarayon hisoblanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan kommunikativ nutq taʼlim jarayonining muhim komponenti boʻlib, oʻqituvchi va tinglovchi oʻrtasidagi samarali oʻzaro taʼsirni taʼminlaydi.

Kommunikativ nutqning tarkibiy tuzilmasi bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan bir necha asosiy komponentlardan iborat. Avvalo, *lingvistik komponent* shaxsning soʻz boyligi, grammatik savodxonligi va nutqning mantiqiy tuzilishini qamrab oladi. Bu komponent fikrning ravon va tushunarli yetkazilishida muhim rol oʻynaydi. Ikkinchi muhim unsur – *pragmatik komponent* boʻlib, u nutqning maqsadga yoʻnaltirilganligi, vaziyatga mosligi hamda muloqot jarayonida toʻgʻri strategiya tanlash qobiliyatini ifodalaydi. Shuningdek, kommunikativ nutq tarkibida *sotsial-psixologik komponent* alohida oʻrin tutadi. Mazkur komponent shaxsning empatiya, hamkorlik, suhbatdoshni tushunish va muloqotda ijobiy psixologik muhit yaratish koʻnikmalarini oʻz ichiga oladi. Bunga qoʻshimcha ravishda, *paralingvistik komponent* (intonatsiya, mimika, jestlar, ovoz tembri) nutqning taʼsirchanligini kuchaytirib, axborotni toʻliqroq yetkazishga xizmat qiladi.²

Pedagogik kommunikatsiya nazariyalari taʼlim jarayonida shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida muloqotning hal qiluvchi rolini eʼtirof etadi. Ushbu nazariy yondashuvlar orasida L.S. Vygotskiy, J. Bruner hamda konstruktivizm konsepsiyasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega boʻlib, ular bugungi zamonaviy taʼlim paradigmalarini bilan uzviy integratsiyalashgan holda rivojlanib bormoqda.

L.S. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga koʻra, shaxsning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy oʻzaro taʼsir orqali amalga oshadi.³ Olim tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” (Zone of Proximal Development) tushunchasi pedagogik kommunikatsiyaning markaziy elementi sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, oʻquvchi yoki tinglovchi oʻz imkoniyatlarini tajribali mutaxassis yoki tengdoshlari bilan muloqot jarayonida kengaytiradi.

Bugungi kunda bu yondashuv treninglar, jamoaviy muhokamalar, mentorlik tizimi va hamkorlikda oʻrganish (collaborative learning) kabi interfaol shakllarda samarali qoʻllanilmoqda.

J. Brunerning kashfiyot orqali oʻrganish (discovery learning) nazariyasi esa bilimning tayyor shaklda emas, balki faol muloqot va izlanish jarayonida shakllanishini taʼkidlaydi.⁴

Bruner taʼlim jarayonida dialogik yondashuvni asoslab, oʻqituvchi va tinglovchi oʻrtasidagi teng huquqli kommunikatsiyani muhim deb hisoblaydi. Mazkur nazariya bugungi kunda muammoli taʼlim, case-study, debat va reflektiv mashgʻulotlar orqali amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Konstruktivizm yondashuvi esa bilimni shaxs tomonidan individual tajriba asosida “qurish” jarayoni sifatida talqin etadi.⁵ Bu yondashuvga koʻra, taʼlim oluvchi passiv qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyektdir. Shu bois konstruktivistik pedagogik kommunikatsiya ochiq savollar, refleksiya, loyiha faoliyati va hamkorlikdagi muammolarni hal etish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy raqamli taʼlim platformalari, blended learning va flipped classroom modellarida aynan konstruktivistik tamoyillar ustuvor hisoblanadi.

¹ Gʻoziyev, E. *Pedagogik psixologiya*. – T.: Oʻqituvchi, 2017. – B. 320.

² Gʻoziyev, E. *Pedagogik psixologiya*. – T.: Oʻqituvchi, 2017. – B. 323.

³ McLeod, S. Vygotsky's Sociocultural Theory of Cognitive Development. - Simply Psychology, 2025.

⁴ Bruner, J. *The Process of Education*. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 312 p.

⁵ Piaget, J. *The Construction of Reality in the Child*. – New York: Basic Books, 1954. – 414 p

Bugungi ta'lim makonida ushbu nazariyalar interfaol metodlar, kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi bilan integratsiyalashib, pedagogik kommunikatsiyaning yangi modelini shakllantirmoqda. Xususan, malaka oshirish jarayonida trening, seminar va mahorat darslari orqali tashkil etilgan dialogik muhit pedagoglarning kommunikativ nutqini rivojlantirish, reflektiv fikrlashini kuchaytirish va kasbiy hamkorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Kattalar ta'limi yoki andragogika shaxsning hayotiy tajribasi, kasbiy faoliyati hamda ichki motivatsiyasiga tayangan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayoni sifatida tavsiflanadi.

Ushbu yondashuvda o'rganuvchi passiv tinglovchi emas, balki o'z bilimini mustaqil ravishda boyituvchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli kattalar ta'limida kommunikativ nutqni rivojlantirish an'anaviy pedagogik yondashuvlardan farqli ravishda, dialogik hamkorlik, refleksiya va amaliy faoliyatga asoslanadi.

Andragogik ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirishning muhim xususiyatlaridan biri – o'rganuvchilarning mavjud kasbiy va hayotiy tajribasiga tayanishdir. Tinglovchilar o'z fikrlarini real vaziyatlar misolida ifodalashga intiladi, bu esa nutqning mazmunan boyishi va mantiqiy tuzilishini mustahkamlaydi. Trening, seminar va mahorat darslari jarayonida muammoli vaziyatlar, kasbiy holatlar tahlili (case-study) hamda jamoaviy muhokamalar orqali tinglovchilarning fikr almashish faolligi ortadi. Shuningdek, kattalar ta'limida nutqni rivojlantirish ichki motivatsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'rganuvchilar o'z kasbiy ehtiyojlariga mos bilim va ko'nikmalarni egallashga intiladi. Bu jarayonda interfaol metodlar orqali tashkil etilgan muloqot muhitining ochiqligi, hurmat va hamkorlik tamoyillari kommunikativ nutqning erkin rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, reflektiv suhbatlar, debatlar va rol o'yinlari shaxsning o'z fikrini asoslab bera olish, boshqalar nuqtayi nazarini qabul qilish va konstruktiv munozara olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Andragogik yondashuvda nutqni rivojlantirish individual ehtiyojlarni inobatga olish bilan ham tavsiflanadi. Har bir tinglovchining kommunikativ tajribasi va psixologik xususiyatlari hisobga olinib, differensial yondashuv qo'llaniladi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli platformalar, masofaviy treninglar va aralash ta'lim modellarining joriy etilishi esa kattalar ta'limida nutqni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirib, virtual muhitda ham samarali pedagogik kommunikatsiyani ta'minlamoqda.

Malaka oshirish jarayonida trening, seminar va mahorat darslari pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lgan ta'lim shakllari hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar tinglovchilarning nazariy bilimlarini boyitish bilan bir qatorda, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash, reflektiv fikrlashini rivojlantirish hamda kommunikativ nutqini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda tashkil etilgan interfaol mashg'ulotlar o'rganuvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni o'z kasbiy tajribasini tahlil qilish va boyitishga undaydi. Trening mashg'ulotlari pedagoglarning shaxsiy va professional salohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan bo'lib, unda guruhii ishlar, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va refleksiya orqali kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi. Trening jarayonida ishtirokchilar o'z fikrini erkin ifodalash, hamkorlikda qaror qabul qilish hamda konstruktiv muloqot olib borish tajribasini egallaydi. Bu esa ularning kasbiy faoliyatida samarali pedagogik kommunikatsiyani yo'lga qo'yishiga zamin yaratadi. Seminar mashg'ulotlari esa nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy fikrlashni rivojlantirish va professional muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Seminarlar davomida mavzuga oid muhokamalar, prezentatsiyalar va ilmiy munozaralar tashkil etilib, tinglovchilarning nutq faolligi, tahliliy fikrlashi hamda dalillash qobiliyati rivojlanadi.

Shuningdek, seminarlar pedagoglarga ilg'or tajribalar bilan tanishish va ularni o'z amaliyotiga integratsiya qilish imkonini beradi. Mahorat darslari esa tajribali mutaxassislar tomonidan namoyish etiladigan ilg'or pedagogik texnologiyalar va samarali metodik yondashuvlarni bevosita kuzatish hamda amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Ushbu mashg'ulotlar orqali pedagoglar real ta'lim vaziyatlarida kommunikativ nutqdan foydalanish usullarini o'zlashtirib, kasbiy mahoratini oshiradi. Mahorat darslarining muhim jihati shundaki, unda nazariya va amaliyot integratsiyalashgan holda taqdim etilib, tinglovchilarda reflektiv tahlil ko'nikmalari shakllantiriladi.

Interfaol ta'lim – bu o'rganuvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi, o'zaro muloqot, hamkorlik va refleksiyaga asoslangan pedagogik yondashuvdir.

Ushbu ta'lim modeli bilimlarni tayyor holatda uzatishga emas, balki ularni tinglovchilar tomonidan mustaqil ravishda anglash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llashga yo'naltiriladi.

Interfaol ta'lim jarayonida pedagog fasilitator rolini bajarib, o'rganuvchilarning fikrlash va nutq faolligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratadi. Ayniqsa, malaka oshirish tizimida interfaol metodlardan foydalanish pedagoglarning kommunikativ nutqini rivojlantirishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval

Zamonaviy interfaol metodlar va ularning ahamiyati

№	Interfaol metodlar	Izoh
1.	“Aqliy hujum” metodi⁶	<i>Ushbu metod tinglovchilarning erkin fikrlashini faollashtirib, qisqa vaqt ichida ko'plab g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi. Ushbu metod nutqning spontan rivojlanishiga xizmat qilib, ishtirokchilarda o'z fikrini tez va ravon ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi.</i>
2.	“Rol o'ynash” metodi⁷	<i>Bu metod real hayotiy yoki kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali nutqning emotsional-ekspressiv jihatlarini rivojlantiradi hamda pedagogik kommunikatsiyada empatiya va moslashuvchanlikni kuchaytiradi.</i>
3.	“Case study” metodi⁸	<i>Bu metod muammoli vaziyatlarni tahlil qilish asosida qurilib, tinglovchilarning tahliliy fikrlashi va dalillangan nutqini rivojlantiradi. Bu jarayonda ishtirokchilar o'z pozitsiyasini asoslab berishga, fikrini mantiqiy izchillikda bayon etishga o'rganadi.</i>
4.	“Debat” metodi⁹	<i>Ushbu metod qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni himoya qilish orqali tanqidiy fikrlash va polemik nutq ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, madaniyatli munozara olib borish malakasini mustahkamlaydi.</i>
5.	“Fishbone”	<i>Bu metod sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga yo'naltirilgan</i>

⁶ Osborn, A.F. *Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Problem-Solving*. – New York: Charles Scribner's Sons, 1953. – 402 p.

⁷ Livingstone, D. *Role Play in Education and Training*. – London: Kogan Page, 1983. – 176 p.

⁸ Yin, R.K. *Case Study Research: Design and Methods*. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2014. – 352 p.

⁹ Johnson, D.W., Johnson, R.T. *Joining Together: Group Theory and Group Skills*. – Boston: Allyn & Bacon, 2013. – 408 p.

	metodi¹⁰	<i>bo‘lib, fikrlarni tizimli ifodalash va muammoni strukturaviy tahlil qilishga yordam beradi. Bu metod nutqning mantiqiy aniqligi va izchilligini kuchaytiradi.</i>
6.	“Insert” metodi¹¹	<i>Ushbu metod matn bilan ishlash jarayonida tinglovchilarning tushunganini belgilash, savollar qo‘yish va xulosalar chiqarishga undaydi, natijada reflektiv nutq rivojlanadi.</i>
7.	“Klaster” metodi¹²	<i>Bu metod tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni vizual tarzda ifodalash orqali fikrlarni umumlashtirish va kengaytirishga xizmat qilib, assotsiativ nutq faoliyatini faollashtiradi.</i>

Mazkur interfaol metodlarning kommunikativ nutqqa ta’siri mexanizmi o‘rganuvchilarni faol muloqotga jalb etish, fikr almashish muhitini yaratish va reflektiv tahlilni rag‘batlantirish orqali amalga oshadi. Ushbu metodlar natijasida tinglovchilarda nutqiy faollik, o‘z fikrini erkin bayon qilish, boshqalar nuqtayi nazarini tinglash va konstruktiv muloqot olib borish kompetensiyalari shakllanadi. Shunday qilib, interfaol metodlar malaka oshirish jarayonida pedagoglarning kommunikativ nutqini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, ularning kasbiy muloqot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kuzatuv va diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlarga asoslangan mashg‘ulotlar ishtirokchilarda kommunikativ nutq, tanqidiy va reflektiv fikrlash, shuningdek hamkorlik kompetensiyalarini barqaror ravishda rivojlantiradi. Shu tariqa, interfaol pedagogik yondashuvlar malaka oshirish jarayonining samaradorligini oshirishda va pedagoglarning kasbiy salohiyatini kengaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘rganilgan nazariy va amaliy materiallar shuni ko‘rsatadiki, malaka oshirish jarayonida trening, seminar va mahorat darslarida interfaol metodlardan foydalanish pedagoglarning kommunikativ nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya shakllanishi o‘rganuvchilarning nutq faolligi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va hamkorlik madaniyatining barqaror oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, interfaol metodlar pedagoglarning reflektiv tahlil qilish ko‘nikmalarini kuchaytirib, amaliyotda bilim va ko‘nikmalarni integratsiyalash imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 20.12.2024 yildagi 867-son Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi Qarori.
3. McLeod, S. Vygotsky’s Sociocultural Theory of Cognitive Development. - Simply Psychology, 2025.
4. Bruner, J. *The Process of Education*. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 312 p.
5. Piaget, J. *The Construction of Reality in the Child*. – New York: Basic Books, 1954. – 414 p.

¹⁰ Ishikawa, K. *Introduction to Quality Control*. – Tokyo: JUSE Press, 1990. – 210 p.

¹¹ Fisher, D., Frey, N. *Checking for Understanding: Formative Assessment Techniques for Your Classroom*. – Alexandria, VA: ASCD, 2007. – 160 p.

¹² Buzan, T. *The Mind Map Book: Unlock your creativity, boost your memory, change your life*. – London: BBC Active, 2006. – 256 p.

6. Osborn, A.F. *Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Problem-Solving*. – New York: Charles Scribner's Sons, 1953. – 402 p.
7. Livingstone, D. *Role Play in Education and Training*. – London: Kogan Page, 1983. – 176 p.
8. ¹ Yin, R.K. *Case Study Research: Design and Methods*. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2014. – 352 p.
9. ¹ Johnson, D.W., Johnson, R.T. *Joining Together: Group Theory and Group Skills*. – Boston: Allyn & Bacon, 2013. – 408 p.
10. ¹ Ishikawa, K. *Introduction to Quality Control*. – Tokyo: JUSE Press, 1990. – 210 p.
11. ¹ Fisher, D., Frey, N. *Checking for Understanding: Formative Assessment Techniques for Your Classroom*. – Alexandria, VA: ASCD, 2007. – 160 p.
12. ¹ Buzan, T. *The Mind Map Book: Unlock your creativity, boost your memory, change your life*. – London: BBC Active, 2006. – 256 p.